

5. Смирнов, С. Социальная педагогика. – Санкт-Петербург: Питер, 2016.
6. UNESCO. Social Pedagogy in the 21st Century. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.
7. Ўзбекистон Республикаси "Таълим тўғрисида"ги қонуни. – Тошкент, 2020.
8. Интернет манбалари: ilm.uz, ziyonet.uz, researchgate.net.

ABDULLA AVLONIYNING - MILLAT ISTIQBOLINI TARG'IB QILUVCHI TARAQQIYPARVAR G'OYALARI

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat

pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti

pedagogika yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Xo'jaqulova Dilnura

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik davri va uning vujudga kelishi, o'sha davrning o'ziga xos ko'rinishlari, Abdulla Avloniyning jadidchilik faoliyati, u yaratgan darsliklar, siyosiy hayotdagi faoliyati, asarlaridagi g'oyaviy fikrlari, yangi usul maktablarining tashkil etilishi va xalqning savodxon bo'lishidagi ahamiyati, Avloniyning jadidchilik harakatidagi faoliyatida xalqni savodxonlikka olib chiqish va ma'naviy jihatdan shakllangan xalqni zamonaviy taraqqiyot cho'qqisiga olib chiqish g'oyalari keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ziyolilar, yangi usul maktablari, Avloniyning jadidchilik faoliyati, ma'rifatchilik, milliy taraqqiyot, siyosiy hayot, milliy istiqbol.

Аннотация. В данной статье подробно рассматриваются эпоха джадидизма и его возникновение, характерные особенности того времени, деятельность Абдуллы Авлони в рамках джадидистского движения, созданные им учебники, его политическая активность, идейные взгляды, отражённые в его произведениях, организационная деятельность новых методических школ и их значение в повышении грамотности народа. Особое внимание уделяется роли Авлони в продвижении идей джадидизма, его стремлению вывести народ на путь просвещения и привести его к современному прогрессу.

Ключевые слова: джадидизм, интеллигенция, новые методические школы, деятельность Авлони в джадидизме, просветительство, natsionalnyy progress, политическая жизнь, natsionalnaya perspektiva.

Annotation. This article provides an in-depth analysis of the Jadidism era and its emergence, the distinctive features of that period, the activities of Abdulla Avloni in the Jadidist movement, the textbooks he created, his political life, the ideological views reflected in his works, the establishment of new-method schools, and their significance in improving public literacy. Special attention is given to Avloni's role in promoting the ideas of Jadidism, his efforts to educate the people, and his vision of leading them toward modern progress.

Keywords: Jadidism, intellectuals, new-method schools, Avloni's activities in Jadidism, enlightenment, national progress, political life, national perspective.

Yangi taraqqiyot davrida milliy o'zlikni shakllantiradigan uchlik – o'tmish, bugun va kelajak hamma davrlarda ham zamonning ziyolilari, xalqning kelajagi uchun qayg'uradigan fidoyilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayni kunda ham bu haqiqatni yanada teran anglash, yangi rivojlanish bosqichida milliy boy tajribadan samarali foydalanish masalasiga davlat darajasida katta ahamiyat qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning: *“Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim. Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak”*ligi haqidagi fikrlari buning yorqin isbotidir.

Avvalo, Renessans pedagogikasi tarixiga qisqa nazar tashlasak.

O'zbekiston hududida **birinchi Renessans pedagogikasi IX-XI asrlarni o'z ichiga olib, bu davrda nafaqat Sharq, balki G'arbda ham pedagogik fikrlar rivojlanishi uchun katta hissa qo'shgan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy kabi olimlar faoliyat yuritishgan. Yevropa va Amerikada XX asrning 50 yillarida paydo bo'lgan insonparvarlik pedagogikasi aslida ilk Uyg'onish davri pedagogikasining tub mohiyati va negizini tashkil etgan.**

Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil Gaspirali rahbarligida qrim tatarlar o'rtasida vujudga kelgan. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon

taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o'z ichiga oladi.

Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rtnashib olishi kuzatiladi. U o'z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlaydi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtirishgacha borildi. O'sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o'z „Xitobnoma“sida (1898) yaxshi bayon qilgan.

Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari—hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish – siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Toshkent shahrida o'tkazilgan “Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumandagi nutqida ham buni ta'kidlab o'tadi. “Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmatini va ahamiyatini hamon yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ'ib etish bizning ustuvor vazifamizdir, deb ta'kidlab o'tadi. Ushbu

anjumanda dunyoning turli xil mamkatlaridan o‘nlab ishtirokchilar tashrif buyurdilar va jadidlar haqida o‘z fikr mulohazalarini bildirdilar. Konferensiyada faol ishtirok etgan Prezident yordamchisi Saida Mirziyoyeva o‘z nutqi davomida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek tili imlosidagi ba’zi muammolarga to‘xtalib o‘tdi. Shu o‘rinda ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning “Har bir milatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oynai hayoti – til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmoq millatning ruhini yo‘qotmoqdir”, degan so‘zlarini alohida ta’kidlab o‘tdi. Bu kabi islohotlar albatta biz uchun juda muhimdir.

Mashhur ma’rifatparvar ziyolilarrdan biri hisoblangan Abdulla Avloniyning faoliyatiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, bir necha jadidlar qatorida xalqni savodli qilish uchun qattiq harakat qilgan. Xalqni savodli qilish uchun yangi usul maktablarini ochish va milliy madaniyatimining targ‘ib etilishida, o‘quv darsliklarining yaratilishida o‘zining munosib hissasini qo‘shgan. Abdulla Avloniy – milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri. “Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida dunyoga keldi. Otasi Miravlon aka mayda hunarmandchilik – to‘quvchilik bilan shug‘ullangan. Piyonbozorda (hozirgi Navoiy teatri maydoni), Yarmarka bozorida (hozirgi San’at muzeyi atrofi) bo‘z va chit bilan savdo qilardi. “Onamning oti Fotimadir” deb yozadi adib o‘z tarjimai holida”. Abdulla Avloniy 7 yoshdan boshlab o‘qishga imkon bermaydi. 1891-yildan boshlab faqatgina qish faslida o‘qiydi, boshqa fasllarda esa mardikorlik bilan shug‘ullanadi. Bu hol ham uzoq davom etmaydi. U butunlay ishga sho‘ng‘ib ketadi.

Binokorlikni o‘rganadi, g‘isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik ishlari bilan shug‘ullanadi. U o‘z tarjimai holida: “Turli gazeta va jurnallar o‘qishga tutindim. 1904-yilda jadidlar to‘dasiga kirdim. Mirobodda ‘usuli jadid’ maktabi ochib o‘qituvchilik qila boshladim”, deydi.

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida tug‘ilgan. Bobosi Mirne‘matboy asli qo‘qonlik o‘qchi-yoychilardan edi. 7 yoshdan O‘qchidagi eski maktabda Akramxon domlada savod chiqardi. 1890 yilda shu mahalladagi madrasaga o‘tdi. So‘ng Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxundda tahsil ko‘rdi. Ammo tirikchilikning og‘irlashuvi o‘qishga imkon bermaydi. “1891-yildan boshlab, faqat qish kunlarida o‘qub, boshqa fasllarda mardikor ishladam”, – deb yozadi Avloniy. Ko‘p o‘tmay, bu ham barham topdi. U butunlay ishga sho‘ng‘ib ketdi. O‘zi aytganidek, binokorlikni o‘rgangan, g‘isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik ishlari bilan shug‘ullangan.

1904-yilda Avloniy Mirobodda usuli jadid maktabi ochadi. 1907-yilda o‘z hovlisida “Shuhrat” gazetasini chiqara boshlaydi. Gazetaning yo‘li ayon bo‘lishi bilan dushmanlari ko‘paygan. Natijada 10-soni chiqib bekilib, redaksiya asbob-ashyolari,

qogʻozlar va materiallar hammasi musodara qilingan. Shundan keyin Avloniy A.Bektemirov nomiga ruxsat olib “Osiyo” gazetasini chiqara boshladi. Nashriyot Avloniyning uyida (Sapyornaya, 26) joylashgan edi. 1914–1915-yillarda advokat Ubaydulla Xoʻjayev bilan “Sadoyi Turkiston” gazetasida hamkorlik qiladi. Gazetadagi sheʼr va maqolalarning aksariyati Avloniy qalamiga mansub. Lekin gazeta uzoq davom etmadi. 66-soni chiqib, moddiy ahvolning tangligidan yopilgan. Umuman, Avloniy 1904–1905-yillardan ham ijodiy, ham amaliy ish bilan qizgʻin shugʻullandi. 1909-yilda “Jamiyati xayriya” ochdi va mahalliy xalq bolalarining oʻqib bilim olishi uchun pul yigʻib, maktablarga tarqatdi. Bu haqda hatto Orenburgdagi “Vaqt” gazetasi yozib chiqdi. 1913-yilning oxirida toshkentlik mashhur jadidlarning tashabbusi bilan “Turon” jamiyati maydonga keldi. Uning taʼsischilaridan biri Avloniy edi. Jamiyat qoshida teatr truppasi tuzildi. Avloniy truppasi sahnalashtirgan birinchi asar Behbudiyning “Padarkush” dramasi boʻldi. “Turon” oʻz faoliyatini shunday boshlagan. Truppa ishida qardoshlar ham ishtirok etdilar. Jumladan, Avloniy taniqli tatar rejissyori Zaki Boyazidskiy, mashhur ozarboyjon sanʼatkori Sidqiy Ruhillo bilan hamkorlik qildi. Masalan, truppaning spektakllarini Zaki Boyazidskiy sahnaga qoʻygan edi. Sidqiy Ruhillo esa 1916-yilda Avloniyning taklifi bilan Toshkentga keladi va shoirning uyida truppa koʻmagida “Layli va Majnun” spektaklini qoʻyadi. Majnun rolini Sidqiy Ruhilloning oʻzi oʻynaydi.

Truppaning gʻoyaviy-badiiy rahbari Avloniy boʻlgan. 1914-yilning 26-dekabrida truppa “Turkiston” nomi bilan Fargʻona vodiysi boʻylab safarga chiqdi, bir qator shaharlarda gastrolga boʻldi. Truppa Qoʻqon (1915-yil 7-yanvar), Namangan (21-24-yanvar), Oʻsh (29-yanvar)da spektakllar qoʻygan. Ularda Avloniy faol ishtirok etgan.

1915-yilda mahalla xalqi domlamiz “teatrchi boʻldi”, “masxaraboz boʻldi”, deb uni maktabdan quvib, Mirobod mahallasidagi boshlangʻich maktabni yopgan.

Ikkinchi tomondan, hukumat tomonidan doimo tazyiqlar boʻlib turgan. Shularga qaramay, Avloniy ijtimoiy faoliyatda qizgʻin davom etgan. Shu yillarda u “Nashriyot”, “Maktab” kabi shirkatlar tuzishda bosh-qosh boʻlgan. Adib bularni keyinroq oʻz tarjimai holida shunday izohlaydi: “bu vaqtlarda bizning maqsadimiz zohirda teatru boʻlsa ham botinda Turkiston yoshlarin siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi”. Ushbu jamiyatlarning ishtirokchilari, xususan, Munavvarqori, shoir Tavallo, Nizomiddin Xoʻjayev, Ubaydullo Xoʻja, aka-uka Saidazimboyevlar Turkistonning maʼlum va mashhur kishilari edilar.

Avloniy 1917-yil Fevral voqealaridan keyin “Yashasin xalq jumhuriyati!” shiori ostida “Turon” gazetasini chiqardi. Gazeta oʻz maqsadini “Musulmonlar orasida koʻp yillardan beri davom oʻlan umumgʻa zoʻrlik, bidʼat odatlarni bitirmak, kelajakda boʻladurgʻon jumhuriy idoraga xalqni tayyorlamoq” deb eʼlon qildi. 2-sonida Mirmuhsinning bir maqolasi atrofida janjal chiqadi. Muharrirni vazifasidan

chetlatadilar, ulamolar matbaa egalarining uylariga vakillar yuborib, “agarda siz Avloniy gazetasin matbaangizga bossangiz, o’lsangiz, sizga janoza o’qutmasmiz” deb qo’rqitib, gazetani yakkalab qo’yadilar. Avloniy Tiflisdan “Mulla Nasriddin” matbaasidan harf va harf teruvchi olib keladi. Baribir yo’l bermaydilar. Avloniy gazetadan ketishga majbur bo’ladi. Gazetaga cheklov qo’yiladi. Bu hodisa katta shov-shuvga sabab bo’ldi. Avloniy “1917-yilda Toshkentda erli xalqdar orasida boshliq bo’lib, “O’qituvchilar soyuzi” va boshqa bir necha rabochiy soyuzlar tashkil qildim”, – deb yozadi o’z tarjimai holida.

Maktab ishi, xalq orasida ma’rifat tarqatish Avloniyning 1917-yilgacha bo’lgan faoliyatining bosh yo’nalishini tashkil qildi. U bu yo’lda katta fidoyilik ko’rsatdi. Shoirning Miroboddagi katta qiyinchiliklar bilan ochgan maktabi butun Toshkentda dovuq qozondi. Lekin ish og’ir kechdi. Mustamlakachilik siyosatini og’ishmay amalga oshirib borayotgan o’lka ma’muriyati maktab masalasida qattiq turdi. Har bir yangi usuldagi maktabning o’qituvchilarigina emas, o’quvchilarning ham kimligi, ayniqsa, dastur va darsliklar hamda ularning mualliflari qat’iy nazorat qilindi. Avloniy shaxsiy arxivida saqlanib qolgan Sirdaryo viloyat xalq maktablari nozirining 1914-yil 19-fevral 538 hamda 24-maydagi 1118 raqamli talabnomalari (chamasi, bunday hujjatlar har yili to’ldirib borilgan) shundan darak beradi.

1908-yilda Avloniyning Miroboddagi maktabi yopildi. Buning sabablari ko’p bo’lishi kerak. Avloniy, o’z tarjimai holida shulardan bittasini tilga oladi: “Maktabimda er, odamlar, tog’- Toshlar, daryo, osmon haqinda suhbatlar o’tkazmoqqa harakat qilganimni Mirobod johil kishilari bilishib, meni kofir bo’lding deb, maktabimni yopdilar...”

Adib 1909-yilda Degrez mahallasida yana maktab ochadi. Avloniy dars berish jarayonida ochilayotgan yangi usuldagi maktablar uchun har jihatdan qulay bo’lgan ko’plab darsliklar yaratish zaruriyatini his qiladi. U yozadi: “Bizim Turkiston makotibi islomiyasinda avvaldan oxira qadar ta’lim o’linajak kitoblar: “Sabotul- ojizin”, “Fuzuliy”, “Navoiy”, “Xo’ja Hofiz”, “Bedil”, “Maslakul-muttaqiyn” kabi she’r kitoblari o’ldig’i jumlaning ma’lumidir. Bu kitoblarning ba’zilari e’tiqod va amaliyoti islomga taalluq mushkul masalalardan iborat o’lg’onlaridin hamda aksarlari forsiy tilda yozilg’onlari uchun yosh bolalarning onlardan istifodalari, bir narsa anglamoqlari imkon xorijinda edi».

Fevral inqilobidan 9-martda Munavvarqori “Sho’royi islom” jamiyatini tuzdi. Nizomiddin Xo’jayev sotsial-demokratlar bilan yaqinlashdi. Ozarboyjondan Mehmed Amin Afandizoda kelib qo’shilgach, “Turon” “Turk federalist” firqasiga aylanib bordi. Avloniyning 1917-yil 6-iyunda “Eski shahar oziq-ovqat komissiyasi a’zosi”, 20-noyabrdan esa “Rusiyaning boshqa viloyat va guberniyalariga Sirdaryo viloyatidan

yuboriladigan eng zarur oziq-ovqat mahsulotlarini ushlab qolish va Eski shahar oziq-ovqat komitetiga ma’lum qilish huquqi bilan nazorat etuvchi vakil” qilib tayinlandi.

Abdulla Avloniy 1917-yilda o’qituvchilik bilan shug’ullanishga ham imkon topdi. Shoirning arxivida saqlangan pasportida uning shu yili 31-iyun va 3-avgust kunlari Qozonda “Bolgar” mehmonxonasida yashaganligi qayd qilingan. U erga nima munosabat bilan borgani noma’lum, lekin 1- avgustda Qozonda Butunrusiya musulmon o’qituvchilarining 2-syezdi ochilgan va Avloniy unga vakil edi. Shoir 1917-yilda mahalliy muallimlar o’rtasida siyosiy ishlar olib boruvchi “O’qituvchilar soyuzi”ni tuzgan edi. 1918 yilda esa Kommunistik partiya safiga a’zo bo’lib kirdi. O’lka sovetiga saylandi. Toshkent partiya tashkiloti, shahar ijroiya komitetida mas’ul vazifalarda ishladi. “Ulug’ Turkiston” gazetasining 1918-yil sonlaridan birida bosilgan rasmiy xabardan Avloniyni o’sha yili Eski shahar ijroiya komiteti raisi lavozimida ishlagani ma’lum bo’ladi. 17-29-dekabrda bo’lib o’tgan Turkiston Kommunistik partiyasining 2-syezdi Avloniyni Markaziy Komitetga a’zo qilib sayladi. 1919-yilning aprelida Turkiston Markaziy Ijroiya Komitetiga saylandi. “Ishtirokiyun” gazetasini yuzaga chiqaruvchi hammuharriri bo’lib ishladi.

1919-yilning iyunida Avloniy RSFSR hukumatining topshirig’i bilan Afg’onistonga boradi. 1919-yilning 28-sentyabridan 1920-yilning 20-iyuligacha Hirotda bosh konsul bo’lib turadi. Afg’on safari Avloniydagi bolsheviklar hukumatiga bo’lgan shubhani kuchaytirib yuboradi. O’zlarini haqiqatchi deb jar solgan rus bolsheviklarining sobiq chor generallaridan mutlaqo qolishmasligiga amin bo’ladi.

Avloniy 1920-yilda sog’lig’i yomonlashgani tufayli Afg’onistondan chaqirib olinadi va Turkbyuroning madaniyat bo’limiga boshliq qilib tayinlanadi. U shu yillari “Kasabachilik harakati” jurnalining muharriri, “Qizil bayroq” gazetasining tahrir hay’ati a’zosi sifatida ish olib boradi.

1921-yildan maorif sohasiga o’tadi. O’sha yili Toshkentdagi o’lka bilim yurtida, 1923-yilda Toshkent xotin-qizlar bilim yurtida mudir, 1924-yilda harbiy maktabda o’qituvchilik qiladi. 1925–30-yillarda O’rta Osiyo Kommunistik universiteti (SAKU), O’rta Osiyo Qishloq xo’jaligi maktabida (SAVKSXSh) dars beradi. O’rta Osiyo Davlat universiteti (SAGU) pedagogika fakultetining til va adabiyot kafedراسi professori, so’ng mudiri bo’lib ishlaydi.

Ilmiy-adabiy merosi. Dastlabki she’rlarini 1894-yildan boshlab yozgan. Lekin ular etib kelmagan. “Adabiyot yoxud milliy sher’lar” nomli 4 qismdan iborat she’riy to’plamlari 1909-1917-yillar oralig’ida alohida-alohida bir necha marotaba nashr qilingan. She’rlarini “Hijron” taxallusi bilan e’lon qilgan. Maqolalarini esa “Mulla Abdulla”, “Avloniy”, “Abdulla Avloniy” nomlari bilan bostirdi. So’ngroq uning ko’p ishlatgan laqablaridan biri “Indamas” bo’lgan.

Abdulla Avloniy o‘z davrining ilg‘or ma‘rifatparvarlaridan biri sifatida jadidchilik harakatida katta rol o‘ynagan. U jadidchilikning asosiy g‘oyalarini targ‘ib qilgan va o‘z faoliyati orqali xalqni bilimli, ma‘rifatli qilishga intilgan, xalqni savodli qilish va ma‘rifiy islohotlarni amalga oshirish uchun yangi usuldagi maktablar ochishga katta e‘tibor qaratgan. U 1907-yilda Toshkentda birinchi yangi usul maktabini ochdi. Ushbu maktabda o‘qitish jarayonida eski an‘anaviy usullardan voz kechilib, ilg‘or va samarali o‘qitish metodlari qo‘llanildi.

Adib jadidchilik g‘oyalarini ommaga yetkazish maqsadida ko‘plab asarlar yaratgan. U 1913-yilda “Oqito‘g‘lar” gazetasini nashr etdi va uning sahifalarida ta‘lim, axloq, milliy uyg‘onish masalalarini yoritib bordi. Shuningdek, u "Turkiy guliston yoki axloq" kitobida milliy va axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qildi, teatrni xalqni tarbiyalashning samarali usuli deb bildi. U o‘z asarlari orqali jamiyatning ijtimoiy muammolarini ko‘rsatib, millatning o‘zligini tanitishga xizmat qildi. Uning "Advokatlik osonmi?" kabi pyesalari jadidchilik g‘oyalarini ommaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, yangi usul maktablari uchun o‘quv darsliklari tayyorlagan. Uning asarlari orasida axloqiy tarbiya, savodxonlik va ijtimoiy masalalarga bag‘ishlangan qo‘llanmalar mavjud bo‘lib, ular yoshlarni ma‘rifiy ruhda tarbiyalashga qaratilgan.

Milliy tilni rivojlantirish va uni xalq orasida keng targ‘ib qilish tarafdori, o‘z asarlarida milliy o‘zlik va birlikni ta‘minlash uchun ona tilining o‘rni muhim ekanini ta‘kidlagan. Shu bilan birga u xalq orasida savodxonlikni oshirish, dinni to‘g‘ri anglash va milliy uyg‘onish uchun doimiy ravishda kurash olib bordi. U xalqni eski urf-odatlardan voz kechib, zamonaviy taraqqiyot yo‘lidan borishga chaqirdi.

Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining yetakchi arboblardan biri sifatida o‘zining pedagogik, adabiy va ma‘rifiy faoliyati orqali millatni uyg‘otishga ulkan hissa qo‘shgan. Uning ishlari xalqimizning ma‘naviy rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lib, bugungi kun uchun ham dolzarbligini saqlab qolgan.

Ma‘lumki, jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga nisbatan loqaydlik va beparvolikni yo‘qotish hamda sog‘lom ma‘naviy ehtiyojni shakllantirish orqali fuqarolarda erkin tafakkur yuritish, daxldorlik tuyg‘usi tarkib toptiriladi. Renessans pedagogikasi uchun xos sanogen, ya‘ni sog‘lom fikrlashni rivojlantirish masalasi ham olimning e‘tiboridan chetda qolmagan. Uning fikr tarbiyasi haqidagi qarashlari zamonaviy pedagogik-psixologik fanlarda tafakkurning alohida turi sifatida e‘tirof etilayotgan sanogen va patogen fikrlashga berilayotgan ta‘riflarga har jihatdan mos keladi: ***“Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur...”***

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,

Xanjar, olmosdan bo‘lur o‘tkur,

Fikring oyinasi olursa zang,

Ruhi ravshan zamir o‘lur, benur”.

Abdulla Avloniyning ilm-ma’rifat va axloqqa doir qarashlari juda chuqur tahlil va talqinni talab etadi. Olimning pedagogik qarashlarini yaxlit tarzda o‘zida aks ettirgan va muhtaram yurtboshimiz har bir maktab binosida yozib qo‘yilishi shart ekanligini alohida ta’kidlab o‘tgan quyidagi g‘oya esa, hech qachon o‘z zalvori hamda ahamiyatini yo‘qotmaydi: ***“Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”.***

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov. A. Saodatga eltuvchi bilim: (Din va falsafa, hayot, ma’naviyat va ma’rifat saboqlari). –T.: Movarounnahr, 2002.-720b.
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. T: “Ma’naviyat”, 2006.
3. Mahmudov, D. (2010). Abdulla Avloniy va zamonaviy pedagogika. Toshkent: Yangi asr avlodi
4. N. To‘xliyev va boshqalar. Toshkent ensiklopediyasi. Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ davlat ilmiy nashriyoti, 2009 — 784-bet.
5. Oltinbek Olim. Jadid adabiyoti namoyondalari: Abdulla Avloniy. „Zabarjad media“, 2022 — 432-bet
6. Prezident Sh.Mirziyoyev. “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqidan.
7. Qoraev, X. (2007). Avloniyning milliy g‘oyalari. Tashkent: Fan.

MA’RIFATPARVAR JADIDLAR FAOLİYATI

Maxmatqulova Gulira’no Odil qizi,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Narpay xorijiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Sadinov Ma'rufjon Normo'minovich,

Samarqand davlat chet tillar instituti